

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

RAJABOV BUNYOD RAJABBOY O'G'LI

**“TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA INVESTITSION
SIYOSATNI OLIB BORISH VA UNI BOSHQARISH”**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich

« ____ » _____ 2015

«Menejment va marketing» kafedrası
mudiri iqtisod fanlari nomzodi
Jumayev Otabek Tolibovich

« ____ » _____ 2015

Bitiruvchi :

5230200 -“ Menejment”- ta'lim yo'nalishi
4 -kurs talabasi
Rajabov Bunyod Rajabboy O'g'li

Ilmiy rahbar:

o'qit. Vohidova Mehri Xasanovna

TOSHKENT – 2015

Men Rajabov Bunyod Rajabboy O'g'li ushbu BMIni mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

_____ Rajabov Bunyod Rajabboy O'g'li

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA INVESTITSION SIYOSATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	
1.1	Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyalarning mohiyati va ularning davlatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	7
1.2	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	15
1.3	Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiya siyosatini olib borishning jahon tajribasi.....	19
II BOB	ATIB “IPOTEKA BANK” NAVOIY VILOYAT FILIALINING INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI	
2.1	ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filialining vujudga kelish, rivojlanish tarixi va boshqaruvining tashkiliy strukturasi.....	29
2.2	ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filialining iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili.....	34
2.3	ATIB “Ipoteka bank” va TIF “Milliy banki”ning investitsion faoliyati ko'rsatkichlaridan solishtirma tahlili	40
III BOB	MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
3.1	Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash masalalari.....	49
3.2	Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo'llari.....	55
	XULOSA.....	67
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Dunyo davlatlari ichida tashqi iqtisodiy faoliyati jadal rivojlanayotgan bir davrda davlat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotining real sektorini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish obyektlarini texnik yangilash, mavjud tabiiy va inson resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyos.

Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi davlatga ilm-fan yutuqlarini olib kiradi va jahon bozorida o'z o'rnini topa oladigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ko'maklashib, ushbu mamlakatning jahon xo'jaligida yirik eksportyor davlatlardan biriga aylanishi uchun zamin yaratishi shubxasiz. Bundan tashqari xorijiy investitsiyalar ichki bozorga nisbatan arzon va sifatli mahsulotlar taklif etadi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, o'rtacha daromadning oshishiga o'z ta'sirini o'tkazadi va mamlakat aholisining umumiy farovonlik darajasining yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

Tashinqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyalar o'zining ijobiy ta'sirlaridan tashqari bir qancha tahdidlarni ham olib kiradi. Ular kirib kelishi bilan nisbatan arzon kapital va nisbatan kuchli xorijiy raqobatchi kirib kelishi natijasida milliy kapital va kompaniyalarni siqib chiqarish (crowding out samarasi), zararli va ifloslantiruvchi ishlab chiqarishli, o'z davlatida raqobatbardoshligini yo'qotgan kapitallarni qabul qilish ehtimoli yuzaga keladi.

Xorijiy investitsiyalarning ijobiy ta'sirining samaradorligini oshirish, undan mamlakat iqtisodiyotiga tahdidlarning ta'sir doirasini kamaytirish va imkoni bo'lsa bartaraf etish maqsadida xorijiy investitsion oqimlarni davlat tomonidan tartibga solinishi talab etiladi. Mamlakatlar ushbu tartibga solish siyosati doirasida avvalo iqtisodiyotning rivojlanish darajasidan kelib chiqib, kirib kelayotgan investitsiyalarning milliy iqtisodiyot uchun samarasini baholagan

holda yoki kirib kelishini cheklovchi, yo rag‘batlantiruvchi choralarni amalga oshiradi, shuningdek, kapital chiqib ketishiga nisbatan ham cheklash yoki rag‘batlantirish siyosatini olib borishi mumkin.

O‘zbekiston ham boshqa davlatlar kabi faol investitsiya siyosatini olib bormoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiya va xalqaro kreditlarni kirib kelishining ustuvor ahamiyati to‘g‘risida Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan: “Xorijiy investitsiyalarni jalb qilmasdan hamda xorijiy kapitalning ishtirokini kengaytirmasdan turib, ayniqsa asosiy sohalarda, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgartirishlarni, iqtisodiyotimizni zamonaviylashtirishni, iqtisodiyotimizni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirishni hamda raqobatbardosh maxsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ya olmaymiz”¹.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ishning bosh maqsadi iqtisodiyotda muhim o‘rin tutuvchi xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari, ularning milliy iqtisodiyotlarga ijobiy va salbiy ta’sirlarining tahlili, xorijiy investitsion jalb etish va ularni tartibga solishning jahon amaliyoti, shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning o‘rni, ularni jalb etish va tartibga solishni amalga oshirish asoslari hamda bu boradagi imkoniyatlarni ilmiy jihatdan tushuntirib berish hamda shu asosda xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni tartibga solish siyosatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Yuqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va ularning davlatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirining nazariy jihatdan ko‘rib chiqish;

-investitsion siyosatning mazmuni, uni amalga oshirish shart-sharoitlari va asosiy vositalari, shuningdek, tashqi savdo siyosati bilan o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish;

¹Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: “O‘zbekiston”, 1995 yil.

-kapital harakatini davlat tomonidan tartibga solinishi nazariyalari va uni baholashning uslubiy jihatlarini yoritish;

-jahon iqtisodiyotida global investitsion oqimlarining uzoq muddatli trendi tahlil qilish;

-O'zbekiston investitsion siyosati va uning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish;

-O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini tartibga solishning institutsional va iqtisodiy jihatlarini ko'rib chiqish;

-O'zbekistonga jalb etilayotgan investitsiyalar va ularni tartibga solish siyosatining samaradorligini baholash;

-barcha tahlillarni umumlashtirgan holda O'zbekiston xorijiy investitsiyalar jalb etish va ularni tartibga solish mexanizmining samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti va predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishning ob'yekti ATIB "Ipoteka bank" va TIF "Milliy bank" investitsiyon faoliyatining solishtirma tahlili. Ushbu ishning predmeti esa investitsion siyosat va unga aloqador barcha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar tizimidir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Xorijiy investitsiyalarning davlatimiz iqtisodiyotida ahamiyati ortib borayotgan ayni damda, ulardan samarali foydalanish va iqtisodiyotning zaruriy sohalariga jalb etish maqsadida davlatning oqilona tartibga solish siyosatini amalga oshirishi zaruriy holat hisoblanadi. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha berilayotgan soliq, bojxona va boshqa tur imtiyozlarning samaradorligini baholash, ulardan yanada unumli foydalanish uchun zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amalga tadbqiq etish davlatimizning xalqaro investitsiyalardan olayotgan nafini yanada oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu ishda ham yuqorida e'tirof etilgan tadbirlar amalga oshirildi va investitsion siyosatda tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini tanlab olish va qo'llanilayotgan vositalarning samaradorligini yanada oshirishga doir amaliy tavsiyalar berib

o'tildi. Ushbu tavsiyalarni amalga tadbiq etish iqtisodiy o'sishga ko'maklashishi va mamlakatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga yordam bergan bo'lardi. Aynan shu ta'kid, ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Mazkur ish kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishi quydagi boblardan iborat.

I bob Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyon siyosatni tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslari.

II bob ATIB "Ipoteka bank" navoiy viloyat filialining investitsion faoliyat tahlili.

III bob Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish istiqbollari .

I BOB TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA INVESTITSION SIYOSATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1 Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiyalarning mohiyati va funksiyalari

“Investitsiyalar” atamasi lotin tilidagi «Invest» so'zidan olingan bo'lib, “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish” ma'nosini anglatadi. Keng ma'noda esa investitsiyalar deganda, qonunan ta'qiqlanmagan barcha tadbirkorlik faoliyatlariga jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat tomonidan daromad yoki samara olish maqsadida muayyan muddatga sarflanadigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi.

L.D. Gitman va M.D. Djonklarning “Основы инвестирования”² kitobida investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beriladi: Investitsiya moliyaviy natijalarni ko'zlab aksiya va obligatsiyalarni sotib olishni anglatadi: bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu molni ishlab chiqarish va sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi. Umuman, keng ma'noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini o'stirish va rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo'ladigan mexanizmlarni ta'minlaydi”.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari tomonidan ham investitsiya tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, ularning birida “Investitsiyalar — barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi”³, deyiladi.

Mamlakatimizda investitsiyalar, shuningdek, investitsion faoliyatning huquqiy-iqtisodiy asoslari yaratilgan bo'lib, shunga muvofiq bu jarayonning mazmuni qonuniy talqin etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonunida “Iqtisodiy va boshqa faoliyat

² Гитман Л.Д., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Рес. с. англ., — М.: Дело, 2010. - 1008 стр.

³ G'ozibekov D.G', Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish vadavlat tomonidan tartibga solish. — T.: TMI, 2009, 72-bet

obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy hamda ularga doir huquqlar”⁴ sifatida ta’riflanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif tushunchasi ko’proq huquqiy-me’yoriy yondashuv natijasidir. Bu ta’rifning qonuniy kuchga egaligini e’tiborga olsak, uning kimlar investorlar hisoblanishi yoki huquqini qo’lga kiritishi nuqtayi nazaridan naqadar muhimligi jihatidan mazkur masalaga e’tibor chetda qolganligini ko’rish mumkin. Iqtisodchi olim N.H. Haydarov o’rganilayotgan tushunchaga o’z munosabatini bildirar ekan, unga shunday ta’rif beradi: “Investitsiyalar-bu mulk shaklidan qat’iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va intellektual boyliklari qonun doirasida bo’lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflanishidir”⁵.

Investitsiyalar faoliyatning kim tomonidan amalga oshirilishi nuqtayi nazaridan ichki va tashqi investitsiyalarga bo’linadi.

Ichki investitsiyalar mazkur mamalakat hududida investitsiya faoliyatini yuritayotgan xo’jalik subyektlari, ya’ni investorlar tomonidan iqtisodiyotga yo’naltiriladigan investitsiyalardir.

Xorijiy investitsiyalar yoki tashqi investitsiyalar chet el mulkdorlarining mutlaq boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan taqiqlanmagan turli tarmoqlariga yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklardir.

Xorijiy investitsiyalar rivojlanish darajasidan qat’iy nazar xoh u sanoati rivojlangan davlat bo’lsin, xoh kam rivojlangan har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarning zarurati ayniqsa o’tgan asrning 80-90-yillarida ahamiyatli darajada o’sdi. Bu davrda investitsiyalarga milliy iqtisodiyotni ishlab chiqarish

⁴ O’zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi qonuni, 1998, 24 dekabr. Soliq va bojxona xabarlari, 4-son, 1999, 3-bet.

⁵ Haydarov N.H. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalarinvestitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari” mavzuidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — T.: «Akadem-Xizmat», 2013, 14—15-betlar.

quvvatlarini ko'chirish, kapital harakati, texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va malakalari, innovatsiyalarning qabul qiluvchi davlat ("ko'lam samarasi"ga erishish maqsadida asosan yirik iqtisodiyotlar)ga olib kirilishi asosida jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining muhim omillaridan biri sifatida qarala boshlandi.

Xorijiy investitsiyalar milliy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi. Samaradorlikning ikki yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin: milliy bozorga xorijiy firmaning kirib kelishi kam samarali milliy kompaniyalarning siqib chiqarilishiga olib keladi va bu o'z navbatida kata va kichik rentabellikka ega bo'lgan kompaniyalar o'rtasida ichki resurslarning qayta taqsimlanishini va qabul qiluvchi davlatda mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi hamda aholi jon boshiga o'rtacha daromadning o'sishiga ko'maklashadi.

Xorijiy filiallar va qo'shma kompaniyalarning yaratilishi mehnat unumdorligining o'rtacha darajasining oshishiga olib eladi. Bu holatning ikki asosiy sababi ko'rsatiladi.

1.Xorijiy kompaniyalarda mehnat birligiga kapital qo'yilmalarining darajasi nisbatan bo'ladi va bu o'z navbatida mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir etadi.

2.Odatda xorijiy kompaniya nisbatan yirikroq (milliy firmalar bilan solishtirganda) tuzilma bo'lib, ko'lam samarasi hisobiga mehnat unumdorligining oshishiga ko'maklashadi.

Xorijiy investitsiya samaradorligining ikkinchi yo'nalishi ichki bozorda xorijiy kompaniyalar hisobiga raqobatbardoshlikning oshishi bilan bog'liq. Yangi paydo bo'lgan firmalarning faoliyati milliy firmlarning samaraliroq ishlashini talab etadi. Xuddi shu tarzda xorijiy firmalarning faoliyati yangi va ilg'or texnologiyalar, shuningdek, boshqaruvning mukammal tajribasining mahalliy firmalarga vertical integratsiyalashgan aloqalar tizimi va ko'rgazma (namoyish) samarasi asosida nisbatan tezroq uzatilishiga ko'maklashadi.

Kapital migratsiyasining asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) shaklida amalga oshiriladi. TTXI deganda, kapital harakatining shunday shakliga aytiladiki, u orqali ma'lum davlat firmasi boshqa davlatda qo'shma korxonasini tashkil etadi yoki kengaytiradi. TTXIning o'ziga xos jihati shundaki, ular resurslar harakati bilan birga nazoratning ham ko'chishini o'z ichiga oladi.

TTXIni kiritishning asosiy sababi kapitalni maksimal foyda keltiradigan davlatga joylashtirish, soliq to'lovlarini kamaytirish va riskni diversifikatsiyalash hisoblanadi.

TTXIni amalga oshirishning asosiy sabablari:

-Firma afzalliklaridan xorijda ko'proq foyda olish maqsadida foydalanish. Firmalarning xorij bozoridagi afzalliklariga noyob texnologiyalarga, patentlarga ega bo'lish, xalqaro marketing tajribasi, boshqaruvning samarali tizimi, korporatsiya hajmi, mashxur brend hamda savdo belgisi va boshqalarni kiritish mumkin. Firma o'zining afzalliklaridan keladigan potensial foydani to'lig'icha o'zlashtirish uchun nazorat va mulkni o'zida saqlab qolishni ma'qul ko'radi va bunda TTXI eng to'g'ri yechim bo'ladi (Stefan Magi, Ronaldo Koasalarining o'zlashtirish nazariyasi). Ushbu nazariya TTXIlarni yuqori texnologiyali sohalarga jalb etishni tushuntirishga yordam beradi va qabul qiluvchi davlatga yo TTXIni subsidiyalash yoki ularning erkin rivojlanishini ta'minlab berishni nazarda tutadi.

-Raqobatni kuchsizlantirish va xorijiy bozorlar ustidan nazoratni saqlab qolish(firmalarning Stefan Xaymer modeli bo'yicha oligopolik faoliyati (Kodak va Fudji,Ford va Jeneral Motors Singapur)). Ushbu model qabul qiluvchi davlatlar hukumatlari TTXI kiribkelishini cheklashi va tartibga solishi kerakligini ko'zda tutadi.

Boshqa xarajatlari bir xil bo'lgan davlatlarning minimal soliq stavkasiga ega bo'lganida operatsiyalarni amalga oshirish orqali soliq to'lovlari hajmini minimallashtirishga intilish. Bundan tashqari, firmalar o'zlarining rasmiy

foydalarini eng kam soliq stavkali davlatlarga joylashtirish uchun transfert narxlari mexanizmidan foydalanishadi.

- Tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyati.

Ishlab chiqarishni nisbatan arzon ishchi kuchili davlatga joylashtirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.

- Transport xarajatlarini iste'molchiga yaqin joyga ishlab chiqarishni joylashtirish orqali kamaytirish.

- Chet davlatidagi import to'siqlarini uning hududida nazorat ostidagi ishlab chiqarishni tashkil etish orqali bartaraf etish.

- Iqtisodiy tebranishlar yoki almashish kursining tebranishidan risklarni diversifikatsiyalash.

- Navbatda TTXIning qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotiga ta'sirining tahlil qilamiz.

- Tadqiqotlarga ko'ra xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirlarini quyidagilar orqali belgilash mumkin:

- Real sektorga qo'shimcha resurslar (kapital, texnologiya, boshqaruv tajribasi va malakali mehnat) olib kiradi, ish joyi yaratadi va tovar bozorida taklifni ko'paytiradi, natijada ichki bozor sig'imi kengayadi, eksport, YaIM oshadi;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiyani amalga oshirib ularning iqtisodiy o'sishiga imkon beradi. Xuddi shunday TTXI ichki bozor rivojlanishiga turtki beradi;

- texnologiya va nou-haularni ushbular mavjud bo'lmagan davlatga olib kirib iqtisodiy o'sishni yanada samaraliroq darajasiga olib chiqadi;

- davlatning makroiqtisodiy va moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- tovar taklifini ko'paytirishga ko'maklashib inflatsiyaga to'siqlar yaratadi; davlat budjeti daromadlarini oshiradi;

- milliy valyutani mustahkamlaydi.

Shu bilan birga TTXIni jalb etishdan mumkin bo'lgan *tahdidlarni* ham hisobga olish kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Nisbatan arzon kapital va nisbatan kuchli xorijiy raqobatchi kirib kelishi natijasida milliy kapital va kompaniyalarni siqib chiqarish (crowdingout samarasi);

- zararli va ifloslantiruvchi ishlab chiqarishli kapitalni qabul qilish;
- o'z davlatida raqobatbardoshligini yo'qotgan kapitallarni qabul qilish;
- monopol bozori yuzaga kelish ehtimoli;
- transfert narx mexanizmi orqali mamlakatdan kapitalning chiqib ketishi;
- adolatsiz raqobat sharoitida ishlovchi tekshirilmagan kapitalni qabul qilish ehtimoli.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rnini tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab etganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdi, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim. Zero, Respublika Prezidenti I.A. Karimovning "Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi"⁶, - degan ko'rsatmalari muhim amaliy ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida «Chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el

6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. - T.: "O'zbekiston", 1993. 16-17-b.

7. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1998 yil, 30 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi. 1998 yil 4 mart. 3-modda, 2-b.

investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari» deb e'tirof etiladi⁷.

Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bulmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz tulovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taaluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt utgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarninig uziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

“Chet el investitsiyalari kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importer mamlakatlar iqtisodiy sub'ektlari hamda qo'shma korxonalar real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag'laridir”⁸.

Chet eldan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar chet ellikka-kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga oqib ketish, qochish ya'ni mamlakatlararo ko'chib yurish xos. Huquqiy nuqtai nazardan ular o'zlarining milliy-huquqiy sharoitlarini qabul qiluvchi mamlakatning huquqiy sharoitlariga almashtiradilar. Chet el investitsiyalari mohiyat jihatidan o'z milliy investitsiya muhitini o'zga muhitga almashtiradi. Xavfsizlik, daromaddorlik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari chet el investitsiyalarining o'ziga xos muhim belgisi aniq maqsadlarni ko'zlashi hisoblanadi. Ularning e'tiborini tortuvchi iqtisodiyot ham o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlik, ishlab chiqarishni o'stirish,

⁸ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2010. -332 b.

tashqi bozorlarga kirib borish yoki noiqtisodiy mazmundagi vazifalar bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'zaro manfaatlarning mos tushishi, ishonchli munosabatlar, kirib borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishining asosi hisoblanadi. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli ravishda mamlakat, valyuta, milliylashtirish, rekvizitsiya kabi qo'shimcha risklarga to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Chet el investitsiyalari risklari ko'lami ichki investitsiyalar risklari doirasidan ancha keng. Shu munosabat bilan chet el investitsiyalarining barcha o'ziga xos xususiyatlari ularga beriladigan ta'rifda o'z aksini topadi. Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot sub'ektlari kapitallarini boshqasiga bog'lab qo'yish bo'lib, bunga o'ziga xos qo'shimcha risklari, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o'zgarishi xos bo'lib, natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi. Bularning barchasi kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitiga qaraganda yanada qulayroq muhitni yaratishni ob'ektiv zaruratga aylantiradi. Chet el investitsiyalari oqimi ko'pgina aktivlar olib kelish bilan birga kapitalni import qiladigan mamlakatda soliq, ijara va boshqa tushumlarini ko'payishini ta'minlab beradi.

“Chet el investitsiyalari to'g'risida”⁹ ga Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar boshqa har qanday shirkatlarlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;

- chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

⁹ O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni, 1998 y. 30 aprel.

Globallashish kuchayishi tufayli butun dunyo bo'ylab qisqa muddatlarda kapital, ishlab chiqarish, tovarlar, intellektual salohiyat, mehnat resurslari, axborotlar va boshqalarning ko'chish jarayoni jadallashadi. Shuning uchun ham, investitsiya siyosatini yuritishda bu vaziyatlarni hisobga olishi zarur bo'ladi. Globallashish ishlab chiqarishning ko'chishiga va uning oqibati sifatida ishlab chiqarish ko'chib ketgan mahalliy darajada murakkab iqtisodiy vaziyatlarning (ishsizlik, byudjetga soliq tushumlarining kamayishi) yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Oxir oqibat, globallashish moliya operastiyalarining erkinlashuviga, xalqaro mehnat taqsimotiga, millatlararo korporastiyalarning paydo bo'lishiga, xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi (tarqatma material va slaydlar). Globallashish va jahon bo'yicha investitsiyalarning o'sish tendenstiyalari sharoitlarida raqobat sohasidagi siyosatni yolg'iz milliy iqtisodiyot doirasida samarali olib borib bo'lmaydi.

Bugungi kunda chet el kapitalini milliy iqtisodiyotga kiritishda bevosita xorijiy investistiyalarni eksportni oshiish siyosati, bu siyosat bizda asosiy, mamlakatdan tashqarida raqobatni kuchaytrishga olib keladi, bu esa uz navbatida faol investitsiya faoliyatiga undaydi.

1.2 Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Chet ellik investor xalqaro huquq prinstiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

- o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi

mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

-O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

-investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliqsiz repatriasiya qilish);

-O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

-o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda er uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

-O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;

-o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

-davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida etkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirganda:

-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya etishlari;

-O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa to'lovlar to'lashlari;

-investitsiyalash munosabati bilan o'z zimmlariga olgan shartnoma majburiyatlari bo'yicha javob berishlari;

-investitsiya loyihalarida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan sanitariya-gigiena, ekologiyaga oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishlari;

-o'z raqobatchilariga nisbatan qo'shimcha imtiyozlar va afzalliklar olish maqsadida investitsiya faoliyati bo'yicha sheriklariga yoki davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga bevosita va (yoki) bilvosita noqonuniy ta'sir o'tkazishning har qanday shakllaridan o'zlarini tiyishlari shart.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga rioya etmaganlik uchun umumiy asoslarda javobgar bo'ladi hamda o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lgan o'zining mol-mulki bilan javob beradi.

Chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyati, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, ularning sho'ba korxonalari, filiallari va boshqa tuzilmalarini, shuningdek xo'jalik uyushmalari va birlashmalarini tashkil etish, sotish, qayta tashkil etish yoki tugatish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning fondlarini shakllantirish, ijara shartnomalari va boshqa shartnomalarini tuzish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, soliqlar va boshqa to'lovlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblanuvchi o'z xodimlari uchun ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning chet el valyutasidagi barcha xarajatlari ularning o'z valyuta tushumlari hisobiga, shuningdek chet el valyutasini olishning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ruxsat etilgan

boshqa manbalari hisobiga ta'minlanishi lozim. Ularning valyutada o'zini o'zi qoplashi tuziladigan konsorstiumlar, birlashmalar va boshqa tashkiliy tuzilmalar doirasida ham ta'minlanishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga rioya etgan holda eksport-import operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O'zlari ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganlarida bunday mahsulot listenziyalanmaydi va kvotalanmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni listenziyasiz import qilishga haqli. Eksportga chiqariladigan o'zining ishlab chiqargan mahsulotini va korxonalar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun import qilinadigan mahsulotni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasiga o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to'lovi olinmaydi.

Chet ellik investorlarga hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga tegishli, ularning investitsiyalari sifatida qo'shiladigan ixtirolarni patentlash va sanoat namunalarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar korxona fondlari ro'yxatini, ularni vujudga keltirish va ulardan foydalanish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar xodimlarining mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona xodimlarini ijtimoiy sug'urta qilish va ijtimoiy ta'minlash (chet ellik xodimlarni ijtimoiy sug'urta qilish va

ta'minlash bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda er uchastkalari sotib olishlari mumkin.

Imoratlar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi boshqaga o'tayotganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda shu ob'ektlar bilan birgalikda er uchastkasidan foydalanish huquqi ham o'tadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitobni va hisobotni amalga oshiradilar. Ular buxgalteriya daftarlari va yozuvlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, shuningdek, o'z xohishlariga ko'ra, erkin ayrboshlanadigan valyutada yuritadilar.

1.3 Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiya siyosatini olib borishning jahon tajribasi

Investitsiya muhiti-bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqa-rorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega. Jahon amaliyotida mamlakatning investitsiya muxitini baho-lash borasida turli yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar bir-biridan investitsiya muhitini tashkil etuvchi omillarni to'liq yoki qisman qamrab olishi bilan farq qiladi. Tahlillar ko'rsatishicha, "Standart & Poor's", "Moody's" va "Fitch IBCA" jahondagi eng yirik reyting agentliklardan hisoblanadi. Ushbu agentliklar emitentning qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'laqonliq bajarish imkoniyatlari va emitentlarning kredit bera olish qobiliyatiga baho beradilar. Agentliklar tomonidan ishlab chiqilgan va

tuzilgan reytinglar mamlakat investitsiya muhitini ma'lum darajada baholash imkonini beradi.

BERI indeksi bo'yicha mamlakat riskini baholash usuli (shu nomdagi firma tomonidan ishlab chiqilgan). Mazkur usulning mohiyati shundaki, obro'li ekspertlarni 102 tanlash asosida va ularga 5 balli (0 dan 4 ballgacha va ularning yig'indisi 1 ga teng) shkalada 15 ta asosiy mezonlar bo'yicha mamlakat riskini baholash taklif etiladi.

1. Siyosiy barqarorlik (0,12).
2. Xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabat (0,06).
3. Milliy lashtirilishi xavfi (0,06), agar mamlakat qonunchiligida mulkni haq to'lamasdan ekspropriatsiya qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, 0 ball qo'yiladi.
4. Valyutaning devalvatsiya qilinish ehtimoli va darajasi (0,06).
5. To'lov balansining holati (0,06).
6. Biznesning byurokratlashish darajasi (0,04).
7. Iqtisodiy o'sish sur'ati (0,1).
8. Valyutaning erkin almashinuv darajasi (0,1).
9. Shartnoma majburiyatlarini bajarish soni (0,06).
10. Mehnat unumdorligi darajasi va ish haqi xarajatlari (0,08).
11. Yuridik va marketing maslahatlarini olish, malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati (0,02).
12. Aloqa va transportni tashkil qilish (0,04).
13. Davlat organlari va jamoat tashkilotlarining munosabatlari (0,04).
14. Qisqa muddatli kreditlarni olish shartlari (0,08).
15. Uzoq muddatli kreditlar, xususiy kapitalni olish foydalanish shartlari (0,08).¹⁰

Yuqorida ko'rib chiqilgan usullar singari ushbu yondashuvda ham mutaxassislar tomonidan beriladigan ballar yig'indisidan foydalaniladi. Umumjahon banki yondashuviga ko'ra mamlakat investitsiya

¹⁰ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2010. 85-bet


muhitiga ta'sir ;

-elektr bilan ta'minlanganlik darajasi va sifati;

-ishchilar malaka darajasi va mehnat qonunchiligining sifati.

TTXIni jalb qilish uchun kuchayib borayotgan raqobatda investisiya kiritish ehtimoli bo'lgan mamlakatdagi qulay investisiya tartiboti omili muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda TTXIning ancha o'sganligiga qaramay, keyingi o'n yillikda ularning asosiy qismi son jihatdan unchalik ko'p bo'lmagan davlatlarga kiritildi. Gonkong, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayvan va Tailand kabi mamlakatlar iqtisodiyotining shiddatli o'sishi TTXI hajmining keskin o'sishi bilan chambarchas boqliq bo'ldi. Aksincha, Saxaradan janubda joylashgan Afrika mamlakatlari tashqi savdo va investisiyalar uchun kamroq ochiq bo'ldi. qisman shu sababdan ham bu mintaqa rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan.

TTXI jahon hajmining taxminan bir foizini jalb qildi xolos va iqtisodiy o'sish va bilimlar olishda boshqa mintaqalardan orqada qolib kelmoqda.



1-rasm. Investitsiyalar belgilariga ko'ra bir necha turlarga ajratiladi¹¹

¹¹ Игошин Н.В. "Инвестиции" 2-ое издание. – М.: "ЮНИТИ", 2011.


Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda davlat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Darhaqiqat, prezidentimiz I.A.Karimov bejizga: "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi."¹² –deb ta'kidlaganlar. Shunday ekan, ushbu omilning global trendini, ayniqsa, deyarli barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda kamayishi kuzatilgan va asta-sekin tiklanish jarayoni kechayotgan global moliyaviy iqtisodiy inqirozdan keying davrdagi trendini tahlil qilish orqali mavjud tendensiyalardan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda foydalanish muhim masalalardan hisoblanadi.

TTXI oqimi 2013-yilda 2012-yildagi natijaga yaqin 1,45 trillion dollardan ko'proqni tashkil etdi. Makroiqtisodiy holatning yaxshilanishi va investorlar ishonchining tiklanishi TTXI oqimi 2014-yilda 1,6 trillion dollarni va 2015-yilda 1,8 trillion dollarni tashkil etishiga olib kelishi kutilmoqda.

Inqirozdan keying davrda TTXIning kirib kelishida rivojlangan davlatlar ulushi tushib rivojlanayotgan iqtisodiyotlar ulushi ortib bordi. 2012-yilda 700 milliard dollardan ortiqroqni tashkil etib, o'zining shu davrgacha bo'lgan qiymatlarining kattaligi bo'yicha 2011-yildan keyingi ikkinchisi bo'ldi. Rivojlangan davlatlarga TTXI oqimi esa aksincha birdaniga 561 mlrd dollargacha kamayib ketgan va o'zining 2007-yildagi eng yuqori nuqtasining atigi uchdan bir qismiga teng bo'lib qolgan. Natijada, rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlardan 142 milliard dollar ko'p TTXI ni jalb etib, 2012-yildagi kirib kelgan TTXIdagi ulushining record darajasi 52 foizni qabul qildi (3-rasm). Ushbu o'zgarishlar eng yirik TTXI qabul qiluvchi davlatlar ro'yhatiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Masalan, jahonning TTXI qabul qiluvchi


¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

eng yirik besh davlatining to'rttasi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar bo'lsa, ushbu davlatlar yigirmataligining to'qqiztasi shu guruh davlatlar hisoblanadi.



2-rasm. Global TTXI kirib kelishining davlatlar guruhi bo'yicha taqsimlanishi, 2007-2012-yillar (million dollarlarda)¹³

Chiqib ketgan TTXI hajmida esa rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti davlatlarining ulushi 35 foizga yetdi. Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti davlatlari orasida BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va JAR) davlatlari muhim tashqi investor davlatlarligicha qolmoqda



3-rasm. Global TTXI chiqib ketishida davlat guruhlarining ulushi, 2007-2012-yillar (foizlarda)¹⁴


¹³ www.unctad.org/fdistatistics

¹⁴ www.unctad.org/fdistatistics

Eng yirik TTXI olib chiquvchi davlatlar ro'yhatida ham rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti davlatlarining o'rni ortib bormoqda.

Beshta eng yirik TTXI olib chiquvchi davlatlarning ikkitasi shu guruh davlatlari bo'lib, birinchi marta Xitoy AQSh va Yaponiyadan keyin uchinchi o'rinda turibdi.

Rivojlanayotgan davlatlarga TTXI oqimi kirib kelishi barcha hududda 2009-yilda kamayib ketdi (Afrikada 2010-yildaham) va 2011-yilgacha yana o'sishi kuzatildi. 2012-yilda rivojlanayotgan Osiyoga TTXI kirib kelishi Xitoy, GongKong (Xitoy), Hindiston, Korea Respublikasi, Saudiya Arabistoni va Turkiya kabi yirik iqtisodiyot va ko'plab subregionlardagi tushish natijasida 6,7 foizga kamaydi. Shunga qaramasdan, 2012-yilda Osiyoga kirib kelgan TTXI hajmi rivojlanayotgan davlatlarga TTXI oqimining 58 foizini ashkil etib, o'zining ikkinchi record darajasini egallab turibdi. Janubi-sharqiy Osiyo millatlari assotsatsiyasi (ASEAN)ga TTXI oqimi 2 foizga o'sdi. G'arbiy Osiyoga TTXI oqimi esa ketma-ket to'rtinchi yili ham kamaydi: davom etib kelayotgan siyosiy beqarorliklar va iqtisodiy turg'unlik sabab investorlarning bu hududga investitsiya kiritish borasida aniq rejalar qabul qila olishmayapti. Lotin Amerikasi va Karib dengizi davlatlariga kiritilayotgan TTXI o'zining 2011-yildagi yuqori darajasini saqlab, 2012-yilda atigi 2,2 foizga kamaydi. Janubiy Amerikaga TTXIning yuqori darajasiga sabab asosan hududning iqtisodiy barqarorligi, yangi bozorlar izlayotgan investitsiyalarni sezilarli darajada ko'proq jalb etishi va xomashyo narxlarining barqarorligi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, Chili, Peru va Kolumbiyada qazib olish sanoatiga investitsiyalarni rag'batlantirishda davom etmoqda. Braziliyaga TTXI oqimi sekinlashdi, lekin mustahkamligicha qolmoqda va mamlakatni jahonning beshinchi yetakchi investitsiya manzili darajasiga ko'tardi.



4-rasm. TTXIni amalga oshirishning asosiy sabablari¹⁵

Firma afzalliklaridan xorijda ko'proq foydaolish maqsadida foydalanish uchun TTXIni amalga oshiradi. Firmalarning xorij bozoridagi afzalliklariga noyob texnologiyalarga, patentlarga ega bo'lish, xalqaro marketing tajribasi, boshqaruvning samarali tizimi, korporatsiya hajmi, mashxur brend hamda savdo belgisi va boshqalarni kiritish mumkin. Firma o'zining afzalliklaridan keladigan potensial foydani to'lig'icha o'zlashtirish uchun nazorat va mulkni o'zida saqlab qolishni ma'qul ko'radi va bunda TTXI eng to'g'ri yechim bo'ladi (Stefan Magi, Ronaldo Koasalarining o'zlashtirish nazariyasi). Ushbu nazariya TTXIlarni yuqori texnologiyali sohalarga jalb etishni tushuntirishga yordam beradi va qabul qiluvchi davlatga TTXIni subsidiyalash yoki ularning erkin rivojlanishini ta'minlab berishni nazarda tutadi¹⁶.

¹⁵ Abduvohidov A. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalar. //Bozor, pul va kredit, 2011 yil 56-bet

¹⁶ Abduvohidov A. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalar. //Bozor, pul va kredit, 2011 yil, 7-son. 45-bet

II BOB ATIB “IPOTEKA BANK” NAVOIY VILOYAT FILIALINING INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI

2.1 ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filialining vujudga kelish, rivojlanish tarixi va boshqaruvining tashkiliy strukturasi

ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filiali O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi “Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida”gi PQ-10-son qaroriga muvofiq, davlat aktsiyadorlik uy-joy jamg‘arma banki “Uzuyjoyjamg‘armabank” hamda “Zamin” davlat aktsiyadorlik ipoteka bank aktsiyadorlarining 2005 yil 16 apreldagi qo‘shma umumiy yig‘ilishi tashkil qaroriga asosan tashkil etilgan.

ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filiali “Uzuyjoyjamg‘armabank” davlat aktsiyadorlik uy-joy jamg‘arma banki hamda “Zamin” davlat aktsiyadorlik ipoteka banki negizida tashkil etilgan bo‘lib, ularning barcha huquq va majburiyatlari bo‘yicha sgu jumladan, mulkiy, moliyaviy va boshqa majburiyatlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘lari saqlanish hamda o‘z vaqtida qaytarilishini kafolatlash bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Bugungi kunda ATIB “Ipoteka bank” bosh boshqarmasi tomonidan bank missiyasi ishlab chiqilgan bulib ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filiali ham ushbu missiyaga asosan ish olib boradi.

Ipoteka Bank missiyasi esa o‘z aktsiyadorlari va bank mijozlari uchun yuqori darajadagi iqtisodiy qadiryatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning yuqori sifati va tanlangan bozordagi yetakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Bankning korporativ qadiryatlari- jismoniy ruh, yangicha fikirlash, ijobiy munosabat, ajoyib sifat-bank missiyasini amalga oshirishda muhum ro‘l o‘ynaydi.

Mijozlarning keng ko'lamdagi bank xizmatlarini taqdim etgan holda, bank mamlakat iqtisodiyatini ko'tarish va rivojlantirish uchun asoslar va sharoitlarni yaratishga ko'p maklashishga intiladi.

O'z mijozlariga xizmatlarni taqdim etishda Ipoteka-Bank professinilizimning yuqori standartlariga muvofiq bo'lish, yangiliklarni qo'llash, yangi g'oyalarga ochiqlik fikirlarda foydalanish hamda qat'iy va izchil faoliyatni amalga oshirishga sodiqdir.

Bank boshqaruvi bankning ijroiya organi bo'lib, bankning barcha faoliyati bo'yicha umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bank boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi ushbu nizomning ilovasiga muvofiq tashkil etiladi.

Bank boshqaruvining vazifasi - bankning rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llari va taktik uslublarini izlab topish va amalga oshirish, uning foydasi miqdorining muttasil o'sib borishini ta'minlashdan iboratdir.

Bank boshqaruvi a'zolarining soni Bank ustaviga asosan belgilanadi. Bank boshqaruvi tarkibiga boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari, bosh buxgalter, yuridik xizmati rahbari kiritilishi lozim. Shuningdek, boshqa asosiy bo'linmalar (departament, boshqarma) boshliqlari ham kiritilishi mumkin.

Boshqaruv raisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli komissiyasi ijobiy xulosasi asosida Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi. Boshqaruv a'zolari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli komissiyasi ijobiy xulosasi asosida Bank kengashi tomonidan saylanadi.

Boshqaruv a'zolarini saylash, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish (raisdan tashqari) Bank kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Bank boshqaruvi a'ziligiga nomzodlarni ko'rib chiqish Bank boshqaruvi hamda Bank kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Bank Boshqaruvi a'ziligiga nomzodlarni ko'rib chiqish va tayinlash Bank kengashi tomonidan har bir nomzod bo'yicha alohida (yakka tartibda) yoki jamoa tartibida amalga oshiriladi.

Boshqaruv a'zoliciga nomzod bank kengashi a'zolariga o'zi haqida, o'zining jinoiy, ma'muriy yoki boshqa xil javobgarlikka tortilgan yoki tortilmaganlik hollari haqida ma'lumot berishi shart.

Bank boshqaruvi a'zoliciga nomzodlar ularning nomzodlari ko'rib chiqilayotganda Bank kengashi yig'ilishida ishtirok etishlari mumkin. Boshqaruv tarkibiga kiritish uchun taklif etilgan nomzod Bank kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, nomzodning har biri bilan mehnat shartnomalari tuziladi.

Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini imzolash vakolati (shartnomani uzaytirish mumkinligi to'g'risida har yili Bank kengashi va Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori qabul qilinishi nazarda tutilgan holda) faqat bir yil muddatga tuzish sharti bilan Bank kengashi raisi yoki Bank kengashi vakolat bergan shaxsga beriladi. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini imzolash vakolati (shartnomani uzaytirish yoki to'xtatish mumkinligi to'g'risida har yili Bank kengashi qarori qabul qilinishi nazarda tutilgan holda) faqat bir yilga tuzish sharti bilan Bank kengashi raisi yoki Bank kengashi vakolat bergan shaxsga beriladi.

Bank boshqaruvi raisi Boshqaruv tarkibidagi bo'sh lavozimga nomzodni bank kengashiga taqdim etadi. Bank kengashi tomonidan boshqaruv a'zoliciga tayinlash masalasi o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi va qaror qabul qilinishi shart. Bank kengashi taklif etilgan nomzodni tasdiqlashga rozi bo'lmagan taqdirda boshqaruv raisi yoki bank kengashi raisi boshqa nomzodni taklif qiladi. munozarali hollarda boshqaruvdagi bo'sh lavozimni to'ldirish haqidagi masala aktsiyadorlarning eng yaqin vaqtga rejalashtirilgan umumiy yig'ilishiga uzil-kesil hal etish uchun kiritilishi mumkin¹⁷.

Bank boshqaruvi a'zosi amaldagi qonunchilik, Bank ustavi hamda mehnat shartnomasi shartlarini buzganligi uchun lavozimidan ozod qilinishi va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bir tomonlama bekor qilinishi mumkin. Bank kengashi o'z qarori bilan Bank boshqaruvi raisi yoki uning a'zosi bilan tuzilgan

¹⁷ www.ipotekabank.uz .

mehnat shartnomalarini, ular tomonidan qo‘pol xatolik va qonun buzilishlarga yo‘l qo‘yilganda yoki bank biznes-rejasining tasdiqlangan parametrlari bajarilishini barbod qilganda muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan Bank boshqaruvining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda Bank boshqaruvining vakolatlarini boshqaruvchiga o‘tkazish to‘g‘risidagi masala shu Aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishining o‘zida hal etilishi yoki Boshqaruv raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni ham tayinlagan holda aktsiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin. Agar Bank boshqaruvini tuzish Aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatlariga kiritilgan bo‘lsa, Bank boshqaruvining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan Bank kengashi Boshqaruv raisining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi, shuningdek Boshqaruv to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun Aktsiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqiradi.

Boshqaruv raisining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- ustav va bank kengashi tomonidan o‘ziga berilgan vakolatlarga muvofiq bankning ishiga rahbarlik qilish;

- bank kengashining roziligiga ko‘ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

- davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarda Bankning manfaatlarini himoya qiladi;

- bank mijozlari bilan shartnomalar va kontraktlar tuzadi;

- bank tizimida jamg‘arma va kommunal kassalar tashkil qilish (yoki tugatish) to‘g‘risida buyruq chiqaradi;

- shtatlarni belgilaydi, bosh bank xodimlari va filiallar boshqaruvchilarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi hamda bekor qiladi, shuningdek ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turilishini ta’minlaydi;

-bank nomidan bank filiallari rahbarlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi;

-bank faoliyatining operativligini ta'minlash maqsadida vazifalarning bajarilishini boshqaruv a'zolari o'rtasida taqsimlaydi;

-bank nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ayrim xodimlarga bank vakili sifatida qatnashish uchun ishonchnomalar beradi;

-bank filiallari boshqaruvchilariga amaldagi qonunchilik va bank filiali nizomiga muvofiq bank nomidan bank operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek xo'jalik shartnomalarini tuzish va filial faoliyatini ta'minlash uchun bosh yoki maxsus ishonchnomalarni beradi;

-bankning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

-o'z vakolati doirasida bank boshqaruvining qarorlari bilan tasdiqlangan bankning ichki normativ hujjatlarini imzolaydi;

-bankning ichki normativ hujjatlari va tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlarni imzolaydi, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlaydi;

-o'z vakolatlari doirasida bankning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi (aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi va bank kengashning vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari);

-aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi va bank kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etadi;

-bankning tarkibiy bo'linmalarining va filiallarining o'zaro samarali harakatini ta'minlaydi;

-bank kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlaydi;

-bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qiladi, ularni tashkil etadi va bajarilishini nazorat qiladi;

-bankning faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

-amaldagi qonunchilikka muvofiq, bankda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, tegishli rasmiylashtirilganligi va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aktsiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi;

-bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni bank kengashi, Taftish komissiyasi yoki bank auditori talabiga ko'ra taqdim etadi;

-davlat statistika hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

-bank sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash, bunday axborotni uchinchi shaxslarga berishning qonuniyligini ta'minlash. bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi;

-xizmat, tijorat va Bank sirini tashkil etuvchi axborotning bank xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlaydi;

Bank boshqaruvi bankning joriy faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshiradi. Bank kengashi va aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarini bajarish bank boshqaruvi vazifasiga kiradi.

2.2 ATIB “Ipoteka bank” Navoiy viloyat filialining iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili

Bugungi kunda «Ipoteka-bank»ning 37 ta filiali va 122 ta mini-banki tomonidan 70,0 mingdan ortiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga turli xildagi bank xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda.

Moliyaviy muassasa tomonidan ishlab chiqilgan va ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida 2014 yil davomida jami 615,1 mlrd so'm kredit ajratilgan bo'lib, uning 302,4 mlrd so'mlik qismi 6007 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashga yo'naltirildi. Kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmini, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qariyb 1,5 barobarga oshirishga erishildi.

2014 yilning o'zida «Ipoteka-bank» tomonidan kichik biznes sub'ektlariga kreditlar ajratilishi natijasida 10000 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, bank 2014 yil kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 69,9 mlrd so'm mikro kredit ajratdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 barobar oshirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarni, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar va mikro kreditlar berish maqsadida bankning imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari 2014 yilda 6,5 mlrd so'mga oshirildi. Shuningdek, o'tgan yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga bankning imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan 3891,0 mln so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Xususan, olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan «Modern maks» MChJga 50,0 mln so'm miqdorida «Eshonqulov Ilhom Birodar» xususiy korxonasiga xizmat ko'rsatish faoliyatini kengaytirish maqsadida 60,0 mln so'm miqdoridagi loyihalari moliyalashtirildi.

Shuningdek, «Ipoteka-bank» tomonidan tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan o'tgan yili 1333 ta tadbirkor ayolga jami 32,8 mlrd so'm miqdorida kredit ajratilib, 1166 ta yangi ish o'ri yaratildi.

Shuningdek, yosh oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasiga ham bank alohidi e'tibor berib kelmoqda. Chunonchi o'tgan yili 300 ga yaqin yosh oilaga jami 3,9 mlrd so'm miqdorida mikro kreditlar berildi. Bu esa katta hayotga qadam tashlayotgan oilalarning jamiyatda o'z o'rnini topishga, iqtisodiyotimizning rivojiga hissa qo'shishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 1386,7 mln so'm miqdorida mikro kreditlar ajratildi.

Ish boshlovchi tadbirkorlarning kredit olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida, bankning o'z mablag'lari hisobidan boshlang'ich sarmoyani shakllantirish mikrokreditlar ajratish, shuningdek, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni rejalashtirgan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha yangi xizmat turlari joriy etilib, 2014 yil davomida boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun 1176,0 mln so'm kredit ajratilgan bo'lsa, kollej bitiruvchilariga 1661,9 mln so'm mikrokreditlar berildi.

Bank strategiyasiga esa quydagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarni moliyaviy qullab-quvvatlashni davom ettirish;

- investitsion xarakterga ega bo'lgan kreditlari hajmini yanada oshirib borish;

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlardagi korxonalarini, kichik biznes va tadbirkorlik sub'berklarini moliyaviy qo'llab quvvatlash bo'yicha to'plangan tajribani yanada mustahkamlash, yosh oilalar, qishloq xududlarida servis sohasini rivojlantirishni kreditlashga alohida e'tibor qaratish;

Bank universal faoliyatini rivojlantirib borish, chakana xizmatlar ko'lamini oshirishda quydagilarga e'tibor qaratadi.

- Ipoteka-bank mijozlariga bank xizmatlarining to'liq spektorini taqdim etish, yangi bank xizmatlarini joriy etish;

- korporativ mijozlariga xizmat ko'rsatish bilan birgalikda chakana bank xizmatlarini ham rivojlantirib borish;

- chakana bank xizmatlariga axborot texnologiyalarini joriy qilib berish;

- alohida kamunal to'lovlarini yig'ish bo'yicha erishilgan natijalarni mustahkamlash, komunal tashkilotlar bilan elektron axborotlarni bevosita almashinuvini tashkil qilish;

- uy-joy qurulishi sohasidagi faoliyati:

-aholi uchun shaharlardan ko'p qavatli uy-joylar qurilishini moliyalashtirish xajmini oshirish;

-respublikamiz aholisiga jalb etiladigan mablag'lar evaziga uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berishni rivojlantirish;

-xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish:-chet el banklari va xalqaro moliya institutlari bilan yangi aloqalar bog'lash, mavjudlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va ularni loyihalarini moliyalashtirishga keng jalb etish, chet el banklari va milliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida vositachilik qilish;

-uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berishda chet el kredit liniyalarini jalb etish;

-jahonda zamonaviy bank amaliyotida qo'llaniladigan bank xizmatlarini o'rganib borish va bank faoliyatiga moslashtirgan holda joriy etish;

-jahonda zamonaviy bank amaliyotida qo'llaniladigan bank xizmatlarini o'rganib borish va bank faoliyatiga moslashtirilgan holda joriy etish;

2015 yil 1 yanvar holatiga Ipoteka-bankning ustav kapitali 181,5 mlrd. so'mga, umumiy kapitali 287,3 mlrd. so'mga yetdi va bu bankning investitsiyaviy faolligini yanada oshirishga zamin yaratdi. Bankning kredit portfeli yil boshiga nisbatan 593,3mlrd.so'mga yoki 30,8 foizga o'sdi va 2015 yil 1 yanvar holatiga 2 521,2 trln. so'mni tashkil etdi. Bankka mijozlarning ishonchi oshib borayotganligini birgina raqam izohlaydi.


Bankning depozit bazasi 1790,1 trln. so'mga yetib, 2014 yil boshiga nisbatan 4,2 mlrd. so'mga o'sdi. Depozitlar tarkibidagi aholining omonatlari esa 109,6 mlrd. so'mga yoki 30,1 foizga o'sdi va 473,3 mlrd. so'mga yetdi.

Ipoteka-bank tomonidan korporativ boshqaruvni takomillashtirish, kapitallashuv darajasini oshirish, resurslar bazasini mustahkamlash, aktivlar sifatini yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlarning bahosi sifatida Ipoteka-bank 2 ta xalqaro tan olingan reyting agentliklarining istiqboli

“Barqaror” reytinglariga ega bo’lib kelmoqda. Jumladan, 2014 yil may oyida “Standard & Poor’s” xalqaro reyting agentligi Ipoteka-bankning “B+” reytingini hamda 2014 yil dekabr oyida “Moody’s Investors Service” xalqaro reyting agentligi “B2” reytingini tasdiqladilar.¹⁸

Hozirgi kunda, masalan, yapon banklari o’z mijozlarining uylariga, ularning Nyu-York, London va boshqa joylarda ochgan hisob varaqlari holati haqida axborotlar berib boradilar. Shunday qilib, uydan chiqmasdan o’z-o’ziga bank xizmatini ko’rsatish sohasida operatsiyalarni amalga oshirishda deyarli jiddiy cheklanishlar yo’q. Bank mijozlari har qanday bank operatsiyalarini kun va tunning xohlagan paytida bajarishi mumkin.

Yana bir misol Fransiyada mijoz bilan to’g’ridan-to’g’ri aloqa o’rnatgan. Aqshning esa barcha yirik banklari mijozlarning uyida xizmat ko’rsatishni taklif etishadi. Bu yo’nalish bugungi kunda O’zbekistonni ATIB “Ipoteka Bank” tomonidan xam yaratilgan. Bu esa mijozlarga yanada qulay sharoitlarni yaratib berishdagi yana bir yuksak qadam desak ayni haqiqat buladi.




5-rasm. Ipoteka-bank aktivlari (mlrd. so'm)¹⁹

Ipoteka-bank aktivlari soni 2013 yil 2960.2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich bir yil o'tib esa, ya'ni 2014 yil 3292.1 mlrd so'mga oshdi. Bu ko'rsatkichlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki bir yil davomida Ipoteka bank aktivlari miqdori 331,9 mlrd so'mga oshgan.


¹⁸YO. Abdellayev, T. Qoraliyev, SH. Toshmurodov, S. Abdullayev. Bank ishi.o'quv qo'llanma, Toshkent "Iqtisod-moliya" 2010. B-86

¹⁹Ipoteka bank 2014- yil hisoboti



6-rasm. Ipoteka-bank depozitlari (mlrd. so'm)²⁰

Ipoteka-bank depozitlari 2013 yilda 1785,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa 2014 yil 1790,1 mlrd so'mni tashkil etgan edi. Bundan aniqlashimiz mumkinki bir yilda 4,2 mlrd so'mga oshgan, ya'ni 2013 yilga nisbatan 2014 yilda depozitlar miqdori musbat natija bilan chiqadi.




7-rasm. Ipoteka-bank kapitali (mlrd. so'm)²¹

Ipoteka-bank kapitali 2013 yilda 233,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa 2014 yilda 287,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bir yil mobaynida bank kapitalini 53,5 mlrd so'mga oshirishga erishgan. Bu natija esa 18,62 foiz ga to'g'ri keladi demak foiz xulosasidan kelib chiqadigan bulsak bank kapitali bir yil davomida yuqori darajada o'sganini ko'rishimiz mumkin.

²⁰Ipoteka bank 2014- yil hisoboti

²¹Ipoteka bank 2014- yil hisoboti



8-rasm. Ipoteka-bank ustav kapitali (mlrd. so'm)²²

Ipoteka-bank ustav kapitali 2013 yilda 138,3 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2014 yilda esa bu ko'rsatkich esa 181,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bir yillik o'sish suratini topadigan bo'lsag 43,2 mlrd so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Agarda foiz ko'rinishida qaraydigan bo'lsag 23,8 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bu asa bank faoliyatini kengaytirish uchun kattagina madat bo'ladi deb aytishimiz mumkin.

2.3 ATIB “Ipoteka bank” va TIF “Milliy banki”ning investitsion faoliyati ko'rsatkichlaridan solishtirma tahlili

ATIB “Ipoteka bank” “Toshkent” Respublika Fond Birjasida qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi amaliyotlarini bank nomidan amalga oshirish bo'yicha investitsiya vositachilari o'rtasida tanlov e'lon qilgan.

Ushbu tanlovda “Toshkent” Respublika Fond Birjasi savdolarida ishtirok etish uchun maxsus litsenziyaga ega bo'lgan barcha investitsiya vositachilari qatnashishi muki edi.

Ariza beruvchilar bank tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnomani to'ldirishlari va quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim edi:

-fond birjasi savdolarida ishtirok etish huquqini beruvchi litsenziya nusxasi (notarial tasdiqlangan);

²²“Ipoteka bank”ning 2013 va 2014- yil hisobotlari asosida tuzildi

-investitsiya vositachisining ta'sis hujjatlari (ustavi) nusxasi notarial tasdiqlangan;

-davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi (notarial tasdiqlangan).

Arizada ko'rsatiladigan xizmatlar shartlari va narxlari batafsil ko'rsatilgan bo'lishi shart edi.

Yirik loyihalarni moliyalashtirishda Ipoteka-bank ishonchli qarz oluvchilar bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor, shuning uchun ham bankning kreditlaridan foydalanuvchi tashkilotlarga ma'lum talablar qo'yiladi. Xususan, qarz oluvchi o'zining barqaror va istiqbolli biznesiga, muvaffaqiyatli ish tajribasiga, xususiy kapitalga ega bo'lishi, shunidek, zarur bo'lgan xollarda bankka etarli darajadagi ta'minotni taqdim etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi bank tomonidan kreditlashni uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlikning bir qismi sifatida qaraydigan xollar maqbullanadi.

ATIB "Ipoteka bank" va TIF "Milliy banki"ning investitsion faoliyati ko'rsatkichlaridan solishtirma tahlillrni keltiramiz.

Mamlakatimizning iqtisodiy muhim hisoblanuvchi barcha mintaqalarida joylashgan 90ta filiali keng doiradagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlamoqda. Shuningdek, Milliy bank Moskva shahrida o'zining "Aziya-Invest Bank" sho'ba bankiga ega.

Milliy bank keng doirada yuritayotgan faoliyat ichki va xalqaro bank operatsiyalarining amalda barcha sohalarini qamrab olgan. Endi u xalqaro andozalar darajasida bank xizmatlari ko'rsatish imkonini beruvchi zamonaviy bank texnologiyalarini rivojlantirmoqda. Bank xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va eksport-import agentliklari ajratayotgan kredit yo'nalishlaridan foydalanish maqsadida korporativ xizmatlar ko'rstib, ular bilan aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash borasida aniq maqsadli siyosat yuritmoqda. Xususan:

-tashqi savdo faoliyati;

Milliy bank O'zbekistondagi butun tashqi savdo oborotining 70%dan ortig'i bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda. Bunda eksport-import bo'yicha kreditlashning bo'nak to'lovlari qaytarilishi, kontraktlar ijro etilishi yuzasidan kafolatlar berish, veksellarni diskontlash, forfeyting, faktoring, o'zbekistonlik eksportchilarga bevosita bank kreditlari berish, loyihalarni moliyalash, eksport-kredit agentliklari ishtirokida eksport-importni moliyalash kabi mexanizmlari qo'llanilayapti. To'lov muddati suriladigan akkreditivlar qo'llanilmoqda, mijoz tovarni yetkazib berayotganda va sotayotganda mablag'larni konsignatsiya shartlarida bir martalik konvertatsiyalash ishlari amalga oshirilayapti;

-loyihalarni moliyalash;

Milliy bank loyihalarni moliyalashda yangi korxonalar qurish, ishlab turganlarini modernizatsiyalash yoki texnik qayta qurollantirish (jumladan, mashina-uskunalar sotib olish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni bajarish), shuningdek ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari normal faoliyat yuritishini ta'minlash uchun zarur xom ashyo va materiallarning bir qismini sotib olish ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarini moliyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Kreditlar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgartishlarni ta'minlovchi eng muhim investitsiya loyihalarini moliyalash uchun mo'ljallangan. Yirik xalqaro moliya muassasalari kredit yo'nalishlarining aksariyat qismi tijorat asosida, bevosita hukumat kafolatlari taqdim etmasdan jalb qilinmoqda;

-investitsiyalashga doir bank ishi;

TIF "Milliy banki" investitsiya banki sifatida mamlakatimizda infrastrukturasi rivojlangan, O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni faol qo'llab-quvvatlayotgan, moliya hamda sanoat sho'balari rivojlanishiga yordam berayotgan eng katta bank hisoblanadi. Bankning investitsiya portfeli to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish, agrobiznes, transport va sayyohlik, moliya sho'basi korxonalarining aksiyalarini qamrab olgan. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, uning investitsiya loyihalarini moliyalash – bank faoliyatidagi shubhasiz ustuvor yo'nalishdir;

Chakana xizmatlar:

- omonatlar;

Aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar doirasini kengaytirish siyosatiga qat'iy amal qilib, Bank aholining jalb etilgan mablag'lari va xususiy omonatlar bo'yicha mamlakatimiz moliya bozorida yetakchilar safiga qo'shildi. Hozirgi kunda Bank chakana xizmatlarning 70dan ziyod turini taqdim etmoqda. TIF "Milliy banki" bo'lim va filiallari orqali ko'rsatiladigan elektron xizmatlar doirasi kengayishi, aholining bankka ishonchi ortishi, omonatlar shartlarini maqbullashtirish, yangi depozitlarni ishlab chiqish va joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish borasida aniq maqsadli ishlar olib borilishi natijasida mijozlar soni ancha ko'paydi. Amalga oshirilgan ishlar O'zmilliybankka aholining jalb etilgan depozitlari bo'yicha O'zbekistonda peshqadamlik mavqeini egallash imkonini berdi;

-plastik kartochkalar;

Bank aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni rivojlantirish borasida plastik kartochkalarning har xil turlariga katta ahamiyat berib qaramoqda. Ularni joriy etishda O'zmilliybank eng zamonaviy texnologiyalardan dadil foydalanib, chinakam novatorlik qilayapti. O'zmilliybank kartochkalari bo'yicha to'lovni qabul qiladigan savdo-servis korxonalari tarmog'i kengayishi bu kartochkalar aholi orasida yanada ommalashib ketishiga yangi turtki berdi. O'zmilliybank milliy valutada hisob-kitoblar qilish uchun mo'ljallangan so'm kartochkalari, Visa Classic va Visa Electron xalqaro kartochkalari bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, O'zmilliybank O'zbekistonning o'zida ham, undan tashqarida ham xizmatlar va mahsulotlarning quyidagi yangi turlarini taklif qilishi mumkin:

-elektron banking

Bankning bo'lim va filiallari mamlakatimizning iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha mintaqalarida joylashgan. Ular mijozlarga bank xizmatlarining butun kompleksini taqdim etayapti, elektron banking tizimi, ya'ni

bankomatlar, savdo va servis korxonalaridagi terminallar orqali zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlayapti:

-“Bank-mijoz” tizimi;

“Bank-mijoz” dasturiy kompleksi bank bilan mijoz avtomatlashtirilgan tarzda o‘zaro hamjihat ishlashi uchun mo‘ljallangan, pul mablag‘larini real vaqt rejimida tezkor boshqarish imkoniyatini oshirishda yordam beradi. AFIRATOning 25-yillik konferensiyasi va Bosh assambleyasi o‘tkazilayotganda bank ilgari surgan “Mijozlarga masofadan elektron xizmatlar ko‘rsatish tizimi” mahsuloti uchun “Texnologiyalarni rivojlantirish” nominatsiyasida Milliy bankka AFIRATO mukofoti taqdim etildi.

Milliy bank O‘zbekiston kredit bozorida peshqadamlik qilmoqda. Bank sanoatning barcha tarmoqlariga hamda mulkchilikning har qanday shakliga mansub korxona va tashkilotlarga milliy va xorijiy valutada kreditlar berayapti. Bank oborot sarmoyasini moliyalash, eksport va importni moliyalash, loyihalarni moliyalash uchun kreditlar ajratmoqda.

Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, uning investitsiya loyihalarini moliyalash;


- Bank faoliyatining so‘zsiz ustuvor yo‘nalishidir.

O‘zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida eksport-import operatsiyalarini bajarish, yagona bank fazosini shakllantirish uchun ishonchli moliya tuzilmasi bo‘lishini ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan “Aziya-Invest Bank” sho‘ba banki Rossiya moliya bozorida mustahkam mavqeni egallab turibdi.

-Hozirda bankning asosiy kuch-g‘ayrati ustuvor tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, kichik va o‘rta biznes loyihalarini amalga oshirish, korporativ va chakana mijozlar doirasini kengaytirish, fond bozoridagi ish samaradorligini oshirish, O‘zmilliybankni institutsional rivojlantirish va xususiylashtirish dasturini ishlab chiqish kabi vazifalarga yo‘naltirilmoqda. O‘zmilliy bank tuzilishida keng ma‘nodagi investitsiya bankini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bank investitsiyalaridan ko‘zlangan

maqsad, hozirgi kunda ham, uzoq muddatli istiqbolda ham bankning tijorat manfaatlari iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, mijozlar manfaatlari bilan eng maqbul darajada uyg‘unlashuviga erishishdan, aktivlarni diversifikatsiyalash, xatarni minimallashtirish hamda resurslar samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Milliy bank daromadliligi darajasi yuqori ekani olib borilayotgan kredit va tijorat faoliyatiga puxta o‘ylab yondashilayotgani hamda oqilona konservativ siyosat yuritilayotgani bilan uyg‘unlikda unga keyingi besh yil mobaynida BIS ishonchlilik reytingi bo‘yicha jahonning eng ishonchli banklari orasida yetaksi mavqeni egallab turish imkonini bermoqda.



9-rasm. ATIB “Ipoteka bank” va TIF “Milliy banki”ning 2014-yildagi investitsion faoliyati ko‘rsatkichlaridan solishtirma tahlili²³

Hozirgi vaqtda Milliy bank oldida quyidagi asosiy vazifalar turibdi:

- mavjud va potensial mijozlar maqsad guruhlarining ehtiyojlari hamda talablariga javob beruvchi faol marketing siyosatini shakllantirish.

- korporativ mijozlar bilan ishlarni kuchaytirish. Mumkin qadar ko‘proq birinchi darajali mijozlarni bankka jalb etish va uzoq muddatli asosda biriktirib olish;

²³www.milliybank.uz

-mijozlar bilan ishlashning andozaviy texnologiyalarni har bir mijozga alohida yondashuv bilan uyg'unlashtirishga asoslangan yangi ideologiyasini joriy etish;

-mamlakat chakana bozoridagi peshqadamlikni saqlab qolish;

-investitsiya dasturini, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish dasturini amalga oshirishda davlatga maksimal darajada yordam berilishini, respublikamiz eksporti qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash;

-mijozlar keng doirasiga tayanib, aktivlar va passivlar strukturasining muvozanatli holatini ta'minlash, ularni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish;

-resurs bazasini diversifikatsiyalash, jumladan bunda tashqi moliyalashdan foydalanish;


-bankning xorijiy investorlar oldidagi katta obro'sidan, xalqaro andozalar bo'yicha bank ishonchliligining yuqori ko'rsatkichlaridan foydalanib, xalqaro bozorlarda bank uchun maqbul narxlarda sarmoya jalb etish borasidagi ishlarni faollashtirish;

-daromadlilik, likvidlikni oshirish, valuta va bozorga oid xatarlarni kamaytirish maqsadida investitsiya portfeli tuzilishini maqbullashtirish;

-bankni boshqarishning moslashuvchan tuzilishini barpo etish.

-shu yilning birinchi yarim yilligida investitsiya iqlimini yanada takomillashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini modernizatsiyalash, texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 10,8 foizga oshdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini bir yilga ishlab chiqadi va ular Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan so'ng u mukammal dastur sifatida qabul qilinadi. Bu dastur iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miqdorini yillik o'stirish sur'atlarining maqsadli ko'rsatkichlarini, kredit, foiz va valuta siyoatini amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Umumiy iqtisodiy tahlilning

zarur ligiga sabab shuki, monetar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish barcha muhim makroiqtisodiy hodisalar;



10-rasm. ATIB “Ipoteka bank” va TIF “Milliy banki”ning investitsion faoliyatining 2009-2013 yillar davomida solishtirma tahlili (mlrd.so'm)²⁴

2009-2013 yillar mobaynida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar va investitsion kreditlar miqdorida o'sish tendensiyasi kuzatilgan. 2009 yilda tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlarning hajmi 6374,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, investitsion kreditlarning hajmi 1534,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2013 yil yakini bo'yicha esa tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlarning hajmi 20392,0 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa shu davr ichida investitsion kreditlarning hajmi 5760,1 mlrd so'mga yetgan.

²⁴www.milliybank.uz

III BOB MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1 Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhiiti barqarorligini ta'minlash masalalari

Tashqi iqtisodiy investitsiyalarning muvaffaqiyatli jalb qilinishi uch guruh omillariga bog'liq bo'ladi. Birinchidan, investitsiya quvvatini mavjudligi. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi. Ikkinchidan, mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiy iqtisodiy, bozor me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlash, ekologik, ijtimoiy, etnografik va ijtimoiy madaniy sharoitlar kiradi. Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi (riski) omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun etarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto yuqori quvvatli investitsiya loyihlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

Investitsiya tavakkalchiligi (riski)-o'tish iqtisodida bo'lgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun riskning muhim turlaridan biridir. Shuning uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistondagi mavjud investitsiya muhiiti investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish kerak. Chet ellik investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini, uning xavfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishi, investitsiyalash maqsadlarga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga

qaraganda qulayligi nuqtai nazardan baholaydilar.

Mamlakatga xos risk darajasi (qarzlarning masalasi, import va eksport balansini, hukumatning barqarorligi va boshqalar), mahalliy sharoitning qo'shni mamlakatga nisbatan ustun tomonlari muhim o'rinda turadi. Investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari (import xom ashyoga bojxona bojlarini bekor qilish, korporativ soliqni qisman yoki butunlay bekor qilish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar), eksport sanoati rayonlari, erkin savdo zonalari, bojxona bojlari amal qilmaydigan zonalarining bo'lishi va boshqalar alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda respublikada muayyan darajada chet el kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda chet el kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy normalar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Chet el kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; chet el kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliy lashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; konstessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aksiyadorlik kapitalida hissani cheklash; majburiy eksport kvotasini joriy qilish; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini listenziyalash va boshqalar.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizatsiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak. Jamg'arish va investitsiyalashni rag'batlantirish uchun, bizning nazariyamizda, investitsiya bo'yicha soliq kreditlarining turli shakllaridan kengroq foydalanishni yo'lga qo'yishi zarur.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod

qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada chet el investitsiyalari ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi.


Iqtisodiyotning globallashuvi va bir-biriga kirib borish, chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga jalb qilish hayotiy zaruratga aylanib borayotgan hozirgi sharoitlarda, investitsiya kapitalini mamlakatimizga eksport qiladigan mamlakatlarning amaldagi qonunlarini, investitsiya muhitini hisobga olgan holda takomillashtirish talab etiladi.

Investitsiya muhitini investitsiyalarning risklarni baholash asosida chet el investitsiyalari oqimining qulaylashtirishiga xizmat ko'rsatishi talab qilinadi. Qabul qiluvchi mamlakatning investitsiya muhiti chet ellik investorlar tomonidan baholanishida, birinchi navbatda, uning xavfsizligi, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligi, mamlakatga xos risklar darajasi, investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlariga e'tibor qaratiladi. Konstessiya sharoitlari, eksport sanoati rayonlari, erkin savdo zonalari, bojxona bojlari amal qilmaydigan zonalarining bo'lishi va boshqalar bevosita chet el investitsiyalari uchun muhim hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil qilish uchun o'z mabalag'larini qo'yadigan xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yangi ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar qo'shma korxonalarda yangi texnologiyalarga ustuvorliklarini nazarda tutish kerak.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika blimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda chet ellik sheriklar harakatlari motivastiyasini anglash, chet el investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini bir xil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, hozirda muhokama qilinishi lozim bo'lgan mamlakatimizga yangi sarmoyalar oqimi kelishi yo'lidagi to'siq va cheklashlarni olib tashlash bo'yicha echimini kutayotgan dolzarb muammolar ham mavjud. Ulardan biri kadrlar tayyorlash milliy dasturidir. Bu dasturning mamlakatimiz kelajagi uchun katta ahamiyatga ega.

Butun dunyoda davlat mablag'lari asosan yo'l qurilishi, shahar obodonchiligi va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi kabi umumiy miqyosdagi ishlarga sarflanadi. Bozor iqtisodiyotining bozor mexanizmi sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish byudjet hisobida qoladi.



11-rasm. 2006-2013 yillarda O'zbekiston respublikasida investitsiya hajmining o'sish suratlari²⁵

Mamlakatimizga jalb qilingan investitsiyalar 2006 yildan boshlab o'zining o'sish tendensiyasini namoyon qildi va 2008 yilda o'sish suratlari o'zining cho'qqisiga yetdi va oldingi yilga nisbatan 128,3 foizga yetdi. Keying yillar o'sish suratlari bir qancha pasayish kuzatildi, 2009 yilda o'zining eng past

²⁵ Saytdan muallif tamonidan tayyorlandi www.uzA.uz

nuqtasiga yetdi, oldingi yilga nisbatan 109,2 foiz o'sish namoyish qildi. 2013-yilda Respublikamizga chet el mamlakatlari tomonidan kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2011 yilda o'tgan yilga nisbatan 112,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatgich 114 foizni tashkil qildi, va tendensiya davomiyligini saqlagan holda 2013 yilda 119,1 foizni tashkil qildi. Kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar suratini jadal o'sishiga asosiy sabab qilib, Respublikamizda xorijiy investorlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, infrastrukturani yaxshilanishi va investitsion jozibadorlikni yaxshilanayotganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Bugungi kunda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining daromadlarini soliqqa tortishda bir qator imtiyozlar berilgan bo'lsada, bizning fikrimizcha, birinchidan, bu soliq imtiyozlarining muddati, hajmi, qo'llanish shart-sharoiti aniq ko'rsatilgan bo'lishi, ikkinchidan, bu engilliklar xorijiy investorlarga yaxshi tanish va tushunarli bo'lib kamida besh-o'n yilga belgilanishi, uchinchidan, soliq imtiyozlari o'zgarmas va qat'iy bo'lishi lozim. Shundagina bu imtiyozlar o'z samarasini berishi mumkin.

Soliq imtiyozlarini berishda jahon tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. AQShda korxonalar zarar ko'rib ishlayotgan davriga soliq to'lashdan ozod qilinadi. Bu tajribani O'zbekistonda ham eng kerakli sohalarda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun qo'llash maqsadga muvofiq. Buning uchun qat'iy soliq nazoratini o'rnatish zarur.

O'zbekiston so'mining erkin almashadigan valyutalarga nisbatan bo'lgan kursining pastligini hisobga olib, xorijiy investorlarning korxonalar sof daromadini taqsimlashda oladigan ulushini soliqqa tortishni vaqtinchalik bekor qilish, ijobiy o'zgarishlarga olib kelardi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida amortizastiya korxonalarning investitsiya

faoliyatini rag'batlantiruvchi bosh omillardan hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda amortizastiya normasi, soliqlar stavkasini tasdiqlash bilan bir vaqtda aniqlanadi. Bunday holatda etakchi tarmoqlarga investitsiyalarni qo'yishni rag'batlantirish maqsadida yuqori amortizastiya normalari belgilanadi. Bu tajribani O'zbekistonda qo'llash muximdir, chunki mashina va uskunalarga o'rtacha amortizastiya normasi bizda 15% ni tashkil etsa, AQShda bu 20-33% ni, Angliyada 25% ni tashkil etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishda bevosita xorijiy investitsiyalarning ulushini oshirishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Tarmoqlar va hududlarda tuzilmaviy qayta qurish vazifasini hal etishda bevosita xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Davlat investitsiya dasturini amalga oshira borib erishish mumkin, chunki bunday bevosita investitsiyalarning aksariyat qismi faqat davlat kafolati ostida kirib kelayotganligini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu sababli, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- ayrim tarmoqlar va mintaqalarda (jumladan, erkin iqtisodiy zonalar) xorijiy investorlar uchun real amal qilishi uchun imtiyozlar tizimini yaratish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, yuqori turuvchi organlar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida mulk va vakolatni aniq chegaralab qo'yish;

- barqaror iqtisodiy tashqi savdo qonunchiligini, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va konstessiyalar bo'yicha me'yoriy bazani yaratish;

- soliqlarni kamaytirish va soliq tuzilmasini soddalashtirish;

- xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning samarali mexanizmini yaratish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini induvidual loyihalar bo'yicha xususiyalashtirish;

- birja bozorlarida va boshqa bozorlarda akstionerlik jamiyatlari aksiyalari paketlarining bir qismini xorijiy investorlarga sotish;

-mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xorijiy investorlarga sotish.

Ushbu tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etilishiga va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

3.2 Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo'llari

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish masalasi, eng avvalo, uning qonuniy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bog'liq bo'ladi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shu yilning yanvar oyida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi yig'ilishida jahon bozorida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va bozor islohotlarini chuqurlashtirishni ob'ektiv shart qilib qo'yayotganligini ta'kidlab, bu yo'nalishlarda 2005 yilda va kelgusi davrlarda hal etilishi lozim bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni belgilab bergan edi. Shu nuqtai nazardan mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyoti rivoji uchun o'ta dolzarb bo'lgan mamlakatimiz Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni aynan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirishda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qo'yilgan yana bir muhim qadam bo'ldi. Mazkur Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyat bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etildi. Farmonga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda

mazkur soliq imtiyozlari berilishi belgilandi.

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, boshqacha qilib aytganda, foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritishga qiziqishi ortmoqda. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim hisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biri bo'lib qoldi. Bu shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytiradi.

Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib borayapti. Chunki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida aynan sarmoyadorlarning o'zlari bevosita ishtirok etishi hisobga olingan va buning uchun bizda etarlicha shart-sharoitlar mavjud. Ayniqsa, respublika mintaqalaridagi boy mineral xom ashyo resurslari, etarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, sog'lom atrof-muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz, xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Xususiylashtirilayotgan korxonalarning investitsiya jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni jalb etish uchun qo'shimcha rag'batlantirishlarni tashkil qilish maqsadida nazorat aksiya paketlarini sotib olmasada, korxonalarga salmoqli hajmlarda investitsiyalar kiritayotgan investorlarga professional boshqaruvchi kompaniyalarga beriladigan davlat aksiyalar ulushini boshqarish huquqini tanlovlarsiz berish ko'zda tutilgan. Farmonning yana bir asosiy xususiyati bu investitsiya kiritish shartlari va joylarining aniq belgilab

qo'yilganligidir. Ortiqcha ishchi kuchi bo'lmagan mintaqalar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida yangi korxonalarni joylashtirish ko'zda tutilgan. Bunday holat xususiy saromyaga ega bo'lgan chet el tadbirkorlar faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadiga ega.

1- jadval

Xorijiy investitsion korxonalar regionlar bo'yich 2013.²⁶

№	Regionlar	Xorijiy investitsion korxonalar soni	Hozirda faoliyati to'xtagan investitsion korxonalar soni va ulushi	
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	59	8	13,50%
2.	Andijan	86	6	7,00%
3.	Buxopa	68	6	8,80%
4.	Jizzax	49	9	18,40%
5.	Qashqadaryo	54	10	18,50%
6.	Navoiy	53	6	11,30%
7.	Namangan	69	8	11,60%
8.	Samarqand	230	23	10%
9.	Surxandaryo	48	3	6,30%
10.	Sirdaryo	48	7	14,60%
11.	Toshkent	472	21	4,40%
12.	Farg'ona	105	9	8,60%
13.	Xorazm	26	1	3,80%
14.	Tashkent shahri	3300	267	8,10%
	Jami	4667	384	8,20%

²⁶: O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi

Iqtisodiy adabiyotlarda va jahon tajribasida xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishda turlicha tartib va usullarning bo'lishi qayd etilgan. Masalan: milliy tartib; adolatli va teng huquqlilik tartibi; qulay muhit barpo etish tartibi; transparent (shaffoflik) tartibi va boshqalar. Shu bois jahon amaliyotida qo'llanilayotgan bu kabi tartib va usullarni qiyosiy tahlil etish bizningcha maqsadga muvofiqdir.

2013 yilda mamlakatimizda jami 4667 ta investitsion korxonalar mavjud bo'lib, ularning 384 tasi faoliyati to'xtagan edi. Korxonalarning salmoqli soni Toshkent va Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona regionlarga to'g'ri keladi. Toshkent shahrini alohida ta'kidlab o'tish joizki, unda umumiy korxonalarning 70% i joylashgan bo'lib, ular 3300 tani tashkil qiladi, 267 tasi faoliyatda emas. Jizzax viloyatida faoliyatda bo'lmagan korxonalarning jami ulushi 18,40% ni tashkil qiladi va bu ko'rsatkich salmoqli hisoblanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xorij kapitali va investitsiyani maxsus qonunlarsiz ham etarlicha himoyalash imkoniyatini beradi. Bu erda xorijiy investitsiyalar ham milliy ichki investitsiyalar kabi umumiy qonunlar asosida muvofiqlashtiriladi. Bu mamlakatlardagi aniq ishlab chiqilgan qonuniy baza chet el investorlarining to'laqonli faoliyatini, ya'ni yangi kompaniyalarni tashkil etishda erkin faoliyatni (ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, mulk huquqi kafolati), foyda olish (soliq siyosatidagi engillik va imtiyozlar), nizolarni tartibga solish (mehnat qonunlaridagi shaffoflik, monopoliyaga qarshi aniq tadbirlar) kabilarni kafolatlaydi.

G'arb mamlakatlarida hukumat kapital qo'yilmalarni faollashtirish strategiyasida ko'proq xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishning egri usulidan (soliq, amortizatsiya, moliya-kredit siyosati) foydalanishni afzal ko'rishadi. So'nggi ikki o'n yillikda g'arbda investitsiya qarorlarini qabul qilishda va amalga oshirishda mahalliy hududlarning javobgarligi va roli oshib bormoqda. Qator mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) mahalliy organlar xorijiy investitsiyalarni va investorlar faoliyatini

muvofiglashtirishda etarlicha mustaqillikka egadir. Bu erda investitsiya bozorini muvofiglashtirishning asosiy vositasi sifatida daromad solig'i (foyda solig'i) qo'llaniladi. Bu soliq stavkasining o'zgarishi firma va kompaniyalarning investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etadi.

Umuman so'nggi 20 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati keng kompyuterlashtirish, resurslarni tejash, yangi zamonaviy texnologiya, shuningdek mahalliy xokimiyatni roli va javobgarligini oshirish asosidagi yangi boshqaruv tizimi asosidagi iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltirilgan. Mahalliy xokimiyatlarga investitsiya dasturlarini boshqarishda, ekologik siyosatni yurgizishda va hududiy rejalashtirishda asosiy rol belgilangan. Jahon tajribasi shundan guvoh beradiki, investitsiya dasturi va loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning ishtirokchilari o'rtasida optimal proporstiyani ta'minlashga bog'liqdir. – Mamlakatimizda samarali qonunchilik bazasi yaratilgani tufayli iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingdan ziyod korxona tashkil etilib, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda,

Har yili uch milliard dollardan ziyod to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 25 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va mustahkamligi, uni rivojlantirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasi va gaz kompressor stansiyasini qurish, "Toshkent issiqlik elektr markazi" ochiq aksiyadorlik jamiyatida kongeneratsion gaz-turbinali texnologiyani joriy etish, Sirdaryo va Tollimarjon issiqlik elektr stansiyalarida detander-generatorlarni o'rnatish kabi yirik loyihalar bo'yicha montaj ishlari jadal amalga oshirilayotir. Joriy yilda loyiha bo'yicha 125 mingta yangi rusumdagi "Kobalt" yengil avtomobilini ishlab chiqarish quvvatiga ega korxona, 25 dan ortiq to'qimachilik ishlab chiqarishi, jumladan, "Shovot tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyati (Xorazm

viloyati) negizida 5 ming tonna ip ishlab chiqarish quvvatiga ega yigiruv fabrikasi ishga tushirish rejalashtirilgan.

Xorijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik yaxshi samaralar berayotir. Negaki, O‘zbekistonda xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Mamlakatimiz davlat investitsiya siyosati uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan bo‘lib, investorlarning samarali ishlashi uchun zarur barcha sharoitni yaratib berishga qaratilgan. O‘zbekistonning geografik jihatdan qulay yerda joylashgani, transport tarmog‘ining rivojlangani, tabiiy resurslarning ko‘pligi, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmaning yuqori darajada taraqqiy etgani, malakali kadrlarning mavjudligi va boshqa omillar investorlarga kelajakka ishonch bilan qarash imkonini bermoqda.

2012 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining oshib borishi iqtisodiyot o‘sishi barqaror yuqori sur‘atlarining va uning tuzilmalarini diversifikatsiyalashning asosiy manbai bo‘ldi. 11,7 milliard dollarga teng miqdorda yoki 2011-yildagiga qaraganda 14 foiz ko‘p investitsiyalar jalb etildi. Barcha investitsiyalarning 22 foizdan ortig‘ini yoki 2,5 milliard dollardan ortiqni xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ulardan 79 foizdan ortig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Barcha investitsiyalarning 74 foizga yaqini ishlab chiqarish qurilishiga yo‘naltirildi. 205 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallandi.

2013-yil birinchi choragi yakunlariga ko‘ra, o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7,2 foiz, jumladan, xorijiy investitsiyalar 35,5 foizni tashkil qildi. 587 ishlab chiqarish ob‘ekti ishga tushirildi, umumiy qiymati 4,3 milliard AQSh dollariga teng yangi 114 investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Davlat ham bu jarayonda muhim rolni o‘ynaydi, uning funkstiyasiga asosan quyidagilarni kiritish mumkin: huquqiy muvofiqlashtirishni ta‘minlash, munistipial tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish; moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish uchun sharoit yaratish, soliq engilliklarini va boshqa moliyaviy imtiyozlarni belgilash; loyihani hayotga tatbiq etishda va uning noxush oqibatlari (ekologiya buzilishi, hududiy er

uchastkasining buzilishi va boshqalar) uchun mahalliy organlarning javobgarligini aniqlash; loyihani amalga oshirish uchun aholini, ijtimoiy tashkilotlarni jalb etish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali loyihani hayotga tatbiq etishning maqsadga muvofiqligini keng targ'ib etish.

AQSh, Braziliya, Xitoy, Meksika, Hindiston kabi yirik mamlakatlarda mahalliy organlarning zimmasiga juda ulkan vazifalar yuklatilgan. Ayniqsa, AQSh va Germaniyada alohida hudud va shtatlar yuqori darajadagi mustaqillikka va yirik miqdordagi moliyaviy resurslarga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda hududiy investitsiya siyosatini olib borish o'ta muhim masalalardan sanaladi. Davlat doimiy ravishda har bir hududning iqtisodiy imkoniyati, rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda investitsiya siyosatini olib boradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida federal darajada maxsus xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqilmagan. Xorijiy investitsiyalar uchun tavsiya etiladigan barcha imtiyoz va engilliklar shtatlar darajasida ishlab chiqilgan. Bu esa o'z navbatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha shtatlar o'rtasida erkin raqobatni vujudga keltiradi. Har bir 50 shtat milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha o'zining maxsus ishlab chiqqan dasturiga ega.

Har bir shtat aniq maqsadga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha bir necha xil dasturlarni ishlab chiqadi. Ular quyidagi maqsadlarda bo'lishi mumkin: ish joylarini tashkil etish; shtatni va alohida shtat hududlarining iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirish; zamonaviy ilg'or texnologiyani joriy etish va fan texnika taraqqiyoti yutuqlariga erishish va h.k.

AQShda shtatlar miqyosida xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlar-bu soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, infratuzilmani rivojlantirishda hamkorlik, kadrlar tayyorlash, ijara haqi va elektr to'lovlarini kamaytirish, past foizlarda kredit shaklida bevosita moliyaviy resurslar ajratish kabilardan iborat.

Har bir shtatning mustaqil investitsiya siyosatini olib borishi, erkin raqobatning vujudga kelishiga, shu hududda ishlab chiqarishning,

tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda qator mamlakatlarda hududni iqtisodiy rivojlantirish korporatsiyalarini tashkil etish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Bu korporatsiyalar mazkur hududda joylashgan firmalarning ishtirokida maxsus fondlarni shakllantiradi. Bu fond mablag'lari hududda infratuzilmani rivojlantirishga, yangi qurilishlarga yo'naltiriladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, chet el investorlariga turli engillik va imtiyozlarni joriy etish bo'yicha Xitoy davlati tajribasi ham ahamiyatlidir. Xitoy hukumati investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatga katta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli muvofiqlashtirib kelmoqda.

Markaziy organlar umumiy investitsiya siyosati doirasida qaysi sohaga investitsiyalarni yo'naltirish zarurligini aniqlab beradi. Mahalliy organlar esa bir vaqtda investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqadi. Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun "soliq kanikuli" va engilliklari, import ta'riflari bo'yicha engilliklari kabi turlicha rag'batlantirish usullari ishlab chiqilgan. Ayniqsa ko'pgina erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilgan korxonalarga nisbatan bunday engillik va imtiyozlar ko'proq ishlatiladi.

Xitoy davlatining investitsiyalar bo'yicha qonunlari Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur kabi davlatlarining qonunlariga ko'p jihatdan o'xshash holda ishlab chiqilgan. Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, turlicha davlatlarning qonunlarida chet el investorlari faoliyatiga cheklanmalar ham belgilangan. Deyarli barcha davlatlarda chet el kapitali kiritilishi mumkin bo'lmagan tarmoqlar mavjuddir.

Qator davlatlarda mahalliy hududdagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, xorijiy investorlarning faoliyatida turlicha cheklovlarni belgilaydi. Masalan AQShda ayrim shtatlarda foydali qazilmalarga chet el kapitalini jalb etish man etilgan bo'lsa, ayrim shtatlarda er uchastkasini sotib olishda cheklovlar belgilangan. Biroq, Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, ko'pgina davlatlarda hududiy investitsiya siyosatidagi moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlarning va engilliklarning berilishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishlariga zamin

yaratmoqdalar.

2013-2015-yillar uchun O'zbekiston Respublikasi aholi farovonligini oshirish strategiyasiga ko'ra 2015-yilga kelib investitsiyalar hajmi 16,7 mlrd. Dollarga yetishi va uning YaIMdagi ulushi 23%ligicha saqlanishi kutilmoqda.

2-jadval

Investitsiyalar va YaIMning o'sish tendensiyasi, 2012-2015-yillar (2015-yil bashorat qilingan)²⁷

Ko'rsatkichlar	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.
YaIM, mlrd. so'm	96589.8	117921	143591	174376
YaIM, mln.dollar (o'rtacha yillik almashuv kursi bo'yicha)	51106.8	56341	63290	72136
Investitsiya, mlrd.so'm	22066.0	27 123.3	33067	40387
Investitsiya, mln.dollar	11669	12959	14575	16707
Investitsiyaning YaIMdagi ulushi (%)	22.8	23.0	23.0	23.2
Ma'lumot uchun: o'rtacha yillik almashuv kursi	1889.9	2093.0	2268.8	2417.3

Ushbu strategiya doirasida investitsiyalarning jalb etishning asosiy yo'nalishlarini ham izohlab beradi.

Respublikamizda ham viloyatlarning, tumanlarning investition faoliyatdagi faolligini va mustaqilligini oshirish hududlarga chet el investitsiyalarini jalb etishda bir muhim mezon bo'lishi mumkin.

Jahon amaliyotida investorlarning manfaatlarini himoya qilish va kafolatini ta'minlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi: milliy qonuniyatlarning chet el investorlariga nisbatan mos me'yorlarini qabul qilish; ko'p tomonlama shartnomalarning me'yorlarini muvofiqlashtirish; kapital qo'yilmalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha davlatlararo ikki

²⁷ 2013-2015-yillar uchun O'zbekiston Respublikasi aholi farovonligini oshirish strategiyasi. – T.: Makroiqtisodiy tadqiqotlar va prognozlashtirish instituti, 2013, 168 b.– www.imfr.uz

tomonlama shartnomalarni muvofiqlashtirish; aniq olingan investitsiya loyihalari bo'yicha davlatlararo va xorijiy investorlar bilan kelishuvnomalarni muvofiqlashtirish. Respublikamizda bu qayd qilingan usullarning barchasidan foydalanilsada, lekin bizning fikrimizcha etarli darajada emas.

Yuqorida qayd etganimizdek, bizning fikrimizcha, respublikamiz investitsiya faoliyatida mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va rolini oshirish va maxsus investitsiyalarni rag'batlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek hududlarda investitsiyalarning manbasi sifatida munistipial va korporativ obligastiyalarni muomalaga chiqarish va ulardan oladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash investitsiya oqimini ko'paytirishga olib kelishi mumkin.

-investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar ishtirokida investitsiyalashni tashkil etish quyidagi yo'nalishda bo'lgani maqsadga muvofiqdir:

-xorijiy investorning loyihani realizastiya qilishdagi mas'uliyatini kuchaytirish, ularning loyihani boshidan oxirigacha milliy investorlarning ulushidan kam bo'lmagan miqdorda kapitali bilan samarali ishtirok etishini ta'minlash va bunday mas'uliyat va majburiyatlar me'yoriy hujjatlarda, jumladan shartnomada qat'iy qilib belgilanishi va amal qilishi kerak;

-O'zbekistan sharoitida ilg'or va zamonaviy uskuna va texnologiya ehtiyojni hisobga olgan holda xorijiy investorlarni o'z texnologiyasi va uskunalarini o'zlashtirish tajribalarini milliy kadrlarga urgatish zimmasini yuklash va ularning bunday majburiyatlarni bajarishga mafaaddorligini oshirish zarur;

-investorlar manfaatlarining bir biriga mos kelmasligi, ya'ni xorijiy investorlarning maqsadi yuqori darajada foyda olish, uzbek investorlari esa foyda olish bilan birga ilg'or texnologiya va ish tajribasiga ega bo'lish ekanligini hisobga olgan holda loyihani realizastiya qilmasdanoq shartnomada tomonlarning ulushi qanday valyutada, qanday o'lchov birligida baholanishi, foydani taqsimlash tartibi aniq va qat'iy belgilanishi maqsadga muvofiqdir;

XULOSA

Bitiruv malaka ishim yuzasidan shuni xulosa qilishim mumkinki, xorijiy investitsiyalar xorijiy investorlarni ro'yxatdan o'tkazishdagi byurokratik to'siqlarga duch kelishi ularni jalb qiliinishini murakkablashtiradi. Bugungi kunda iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish, buning barobarida ularga turli imtiyozlar berish orqali chet el investorlarini jalb qilish, qo'shma korxonalarni yanada kengaytirish, iqtisodiyotda tovar ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, bo'sh ish o'rinlarini yaratish kabi muammolarni echish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Yana bir muammo bu tadbirkorlarning chet tillarda so'zlasha olmasligi, internet orqali chet el hamkorlari bilan muloqot qila olmasligi yoki ular bilan muloqatlar o'rnata olaolmasligi.

Chet el investitsiyalaridan samarali foydalanish borasidagi asosiy muammo mamlakatni rivojlantirish uchun tabiiy shart-sharoitlar etarli bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish jarayoniga bevosita chet el investitsiyalarini oqilona jalb etilmayotganligi hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning mavjudligi respublikamiz iqtisodiyotiga jalb qiliinayotgan investitsiyalarni investitsiyalar umumiy xajmidagi salmog'ini past bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Bevosita chet el investitsiyalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish va foydalanishni takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Investor qilishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar (risklar) ya'ni:
 - Iqtisodiy tavakkalchilik;
 - Siyosiy tavakkalchilik;
 - Ijtimoiy tavakkalchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim.

2.Mamlakatimiz iqtisodiyotining ustivor tarmoqlariga bevosita chet el investitsiyalarini jalb etish orqali tayyor mahsulotlarni eksport uchun ishlab chiqarishni kuchaytirish lozim.

Respublikamizda ana shunday tarmoqlardan biri engil sanoat tarmog`i xisoblanadi.

3.Mamlakatimizda qishloq xo`jaligi asosiy bazaviy tarmoq xisoblanganligi bois unga yo`naltirilayotgan bevosita chet el investitsiyalarining xajmini oshirish lozim.

Hozirgi kunda qishloq xo`jaligida milliy daromadning 40 foizdan ortiq qismi yaratilmoqda. Ammo qishloq xo`jaligiga qiliingan bevosita investitsiyalarning salmog`i jami bevosita investitsiyalarning xajmida 7 foizdan oshmayapti.

4.Iqtisodiy tarmoqlarda xorijiy sarmoya egalari potensial investorlar birinchi navbatda foyda olishdan manfaatdor, ammo tavakkalchilik ularni jiddiy xavotirga soladi. Ular uchun asosiy o`ziga tortadigan omillar rivojlangan infratuzilma, ishonchli va malakali mehnat resurslari, daromad va kapitalni chet elga o`tkazish(repatriastiya xukukining kafolatlari), shuningdek, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikdan iborat.

5.Katta darajadagi faolligi va sharoitlariga ko`ra moslashuvchan maxsus erkin iqtisodiy xududlarning ixtisoslashgan mintaqaviy to`zilmalari tizimini yaratish masalasini xal qilish lozim.

Ma`lumki, mamlakatimiz parlamenti tomonidan 1996 yil 25 aprelda «Erkin iqtisodiy xududlar to`g`risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun mamlakatimizda erkin iqtisodiy xududlarni tashkil etish, ushbu xududlarda ma`lum imtiyozlarni joriy etish, bu xududlar chegarasini aniq belgilash, bu xududga xorijiy investitsiyalarni kirib kelishi va o`z faoliyatlarini yuritish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish, mazkur xududni iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish, yangi ish o`rinlarni yaratish hamda faol mehnat bilan ta`minlash, ishsizlik masalasini va muammolarini bartaraf etish va hokozolarni ta`minlab berishga qaratilgandir.

6. Mamlakatimizdagi xo'jalik sub'ektlarining, shu jumladan, davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorlarida sotish yo'li bilan xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng ko'lamda jalb etish imkoniyatidan foydalanish lozim.

7. Mahalliy davlat hokimiyat organlarining chet investitsiyalari hamkorligida barpo etilayotgan korxonalarni qo'llab quvvatlash hamda ularning faoliyatini boshlashida ko'maklashishini oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: "O'zbekiston" 2014 yil
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil.
- 4.O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonun.
- 5."Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent. 15.06.2005 yil.
- 6."O'zinfoinvest agentligini tashkil etish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-587 sonli Qarori 06.02.2007 yil
- 7."Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-927 son Qarori 24.07.2008 yil.
- 8."Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1731 sonli Qarori 17.03.2012 yil.
- 9."Bozor isloxotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustivor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish

va chora–tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005 yil.

10.“Tadbirkorlik sub’ektlarini xuquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005 y.

11.“To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag’batlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4434 sonli Farmoni 10.04.2012 yil.

12.“Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4436 sonli Farmoni 13.04.2012 yil.

13.“Jizzax maxsus industrial zonasini tashkil etish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4516 sonli Farmoni 18.03.2012 yil

14.Pul-kredit ko’rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarori. 04.02.2003.

15.“Pul mablag’larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarori. 05.08.2002.

16. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo’lishi darkor.-T.: “O’zbekiston”. 2006 yil.

17. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil xarakat qilishimiz lozim.-T.: “O’zbekiston”. 2006 yil.

18.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.-T.: “O’zbekiston”. 2005 yil 92 b.

19.Karimov.I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to’g’risida.-T.: “O’zbekiston”. 2005 yil.

20.Karimov I.A. O’zbekiston–XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: “O’zbekiston”. 1997 yil.

21.Karimov I.A. O'zbekiston–bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.-T.: "O'zbekiston". 1996 yil.

22.Karimov I.A. O'zbekiston–iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston". 1995 yil.

23.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston". 2009 yil.

24.I.A.Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan . yil bo'ladi.-T.: "O'zbekiston". 2012 yil

25.I.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.-T.: "O'zbekiston" 2013 yil 64-bet.

26.Karimov I. A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi.-T.: "O'zbekiston". 2014 yil 24 b

27.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yil, 2012 yil 2013 yil yakunlariga ba'g'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi.

II.Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

1.G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya". 2013 yil.

2.Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2013.

3. Sharp U, Aleksandr G, Dj Beyli "Invesments". Moskva. INFRA. 2012.

4.Mertens A.B. "Invesments". – Kiyev: Kiyev investitsiya agentligi. 2011.

5.Uzoqov A., Ergasheva Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. 2007 yil .

6. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T.: “Moliya” 2011, - 312 b.
7. Akramov E.A. Экономические реформ Республики Узбекистан. – М.: ТОО “Lux art”, 2013. - 235 стр.
8. Asadov D.B. Стадия маркетинга инновационного проекта – важный фактор управления проектами. – М., 2014. 134 б.
9. Бутиков И. Рынка ценных бумаг. – Т.: Конаудитинформ, 2001. – 280 стр.
10. Богатин Ю.В, Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие. – М. ЮНИТИ. 2013. - 150 стр.
11. Бачаров В.В. Финансо-кредитные методы регулирования рынка инвестиций. – М.: Финансы и статистика. 2014. - 147 стр.
12. Валдайцев С.В, Воробев Р. Р и др. Инвестиций. Учебник. - М.: ТК Венби. 2013. - 146 стр.
13. Волков И.М, Грачева М. В. Проектный анализ. – Учебное пособие. М.: “Дело ЛТД”. 2013. - 189 стр.
14. Uzoqov A, Ergasheva Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O’quv qo’llanma. 2014 yil.
15. Ивонин С. В. Усиление влияния фондового рынка на макроекономическую политику Республики Узбекистан. – М. 2015. 125 стр.
16. Игошин Н.В. Инвестиции: организация управления и финансирование. М.: ЮНИТИ. 2012.
17. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. Учебник. М.: Финансы и статистика. 2013. - 149 стр.
18. Есипова В.Е. Международные инвестиции и международные закупки. ГУЕФ. 2013 г. 313 стр.
19. Найденов В.И. Инвестиции. М.: 2005.
20. Rashidov O.Y, Karlibaeva R.X. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish. – Т.: TDIU. 2012. - 127 б.

21.Семенов А. Л. Инвестиционный анализ и оценка эффективности проектов. Част I учебно-методического пособия. - М.: Экономический факультет МГУ. ТЕИС. 2014. - 284 стр.

22. Серов В.Н. Инвестиционный менеджмент. М.: ЮНИТИ. 2000.

23.Хонко Я. Планирование и контрол капиталовложений. - М.: “Ekonomika”, 2013. - 90 стр.

24. Гитман Л.Д., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Рес. с. англ., — М.: Дело, 2010. - 1008 стр.

25.G'ozibekov D.G', Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish vadavlat tomonidan tartibga solish. — T.: TMI, 2009, 72-bet

III.Internet saytlari

- 1.www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti
- 2.www.uzreport.uz
- 3.www.mfer.uz O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiyot va savdo vazirligi sayti
- 4.www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi sayti
5. www.mb.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank sayti
6. www.unctad.org/fdistatistics BMT ning rasmiy sayti